

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ASKAROV BAXTIYAR MAMITOVICH

**BALIQCILIK SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA AQLLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Askarov Baxtiyar Mamitovich

Baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanish
imkoniyatlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)..... 3

Аскарлов Бахтияр Мамытович

Возможности использования интеллектуальных технологий для повышения
эффективности рыбной отрасли 29

Askarov Bakhtiyar Mamitovich

Possibilities of using intelligent technologies to increase the efficiency of the
fishing industry (on the example of the Republic of Karakalpakstan)
..... 59

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ASKAROV BAXTIYAR MAMITOVICH

**BALIQCILIK SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA AQLLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2882 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzataev Salamat Muratbaevich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Doschanov Tangirbergen
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Termez davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 8 » avgust soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (342 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 24 » iyul kuni tarqatildi.
(2025-yil « 24 » iyul dagi 83 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B.S.Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning tobora chuqurlashib borishi sharoitida dunyoda ocharchilik muammosi kuchayib borishini e'tiborga olganda qishloq xo'jaligini innovatsion va raqamli texnologiyalarga ko'ra samarali rivojlantirishga o'ta muhim muammo sifatida qaralmoqda. FAO tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra "qishloq xo'jaligida eng serdaromad va aholi uchun ko'pgina davlatlarda arzon oziq-ovqat bu baliq mahsulotlari hisoblanadi. Bu orqali ocharchilik muammosiga yechim topish mumkin bo'lsada, afsuski yildan-yilga yuzaga kelayotgan iqlim o'zgarishi, chiqindilarning ko'p miqdorda okeanlarga chiqarilayotganligi aynan baliqchilik sohasida juda katta muammolarni yuzaga keltirmoqda"¹. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida mavjud resuslardan oqilona foydalanish bilan bir qatorda sohaga aqlli texnologiyalarni keng qo'llash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dunyo bo'yicha dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirish, sohada ish o'rinlarini ko'paytirishi va aholi daromadini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar tarkibida baliqchilikni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada baliqchilik ishlab chiqarishida xarajatlarni kamaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda baliqchilikda aqlli texnologiyalarni qo'llash kabi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy yechimlarni asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida qishloq xo'jaligini sifat jihatdan rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ekologik darajasini yanada oshirish, aqlli innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, daromadni, ayniqsa aholiga qo'shimcha daromad manbalarini kengaytirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "...Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish deyapmiz, har bir xonadonda daromad manbai yaratishni o'ylayapmiz. Mana tayyor loyiha. Ko'chma hovuzlarni yetkazib berib, tartib qoidasini o'rgatib, uy sharoitida baliq boqishni ko'paytirish kerak"². Bu borada baliqchilik sohasini samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, aholi o'rtasida baliq yetishtirishning keng miqyosda ko'payishiga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishning vosita va shakllarini asoslash, baliq mahsulotlari tannarxini pasaytirish kabi masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni

¹ BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlari - <https://www.fao.org/>-

² Shavkat Mirziyoyev: Uy sharoitida baliq boqishni ko'paytirish kerak — <https://zamon.uz/detail/uy-sharoitida-baliq-boqishni-kopaytirish-kerak---shavkat-mirziyoyev-siyosat>

кengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 6-maydagi 145-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 9-fevraldagi 80-son “O‘zbekiston Respublikasining tabiiy suv havzalarida baliq ovlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligida baliq yetishtirishni yanada ko‘paytirish, baliqchilik xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish, sohada innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali aqlli baliqchilik xo‘jaliklarini yaratish va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish borasida katta innovatsiyalar amalga oshirilmoqda, bu borada dunyoda ko‘pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, xorijlik olimlar I.V.Trenkler, F.H.Mustafa, A.Navarro, E.Kosta, N.Pereira, H.Fushimi, X.Yang, S.Zhang, J.Liu, Q.Gao, S.Dong, C.Zhou, S.Gun, S.U.Jons, A.Karpol, S.Fridman³ larning ilmiy ishlarida, MDH hududidagi olimlardan I.A.Chernyavskiy, N.M.Kotov, D.B.Borodin, B.P.Gorshechnikov, E.A.Interesova, Yu.A.Privezensev, S.V.Ponomarev, L.Yu.Lagutkina, V.A.Vlasov, V.I.Kozlov, A.V.Kozlov, V.I.Komlaskiy, G.V.Komlaskiy, V.A.Velichko⁴ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

³ Тренклер И.В. «Консервационная аквакультура» США и Канады: 1. Редкие и исчезающие виды. Рыбоводство и рыбное хозяйство. 2016, № 11, с. 58-70.; Mustafa, F.H. A Review of Smart Fish Farming Systems. J. Aquac. Eng. Fish. Res. 2016, 2, 193–200.; Navarro, A.; Costa, E.; Pereira, N. A Systematic Review of IoT Solutions for Smart Farming. Sensors 2020, 20, 4231.; Fushimi H. Production of juvenile marine finfish for stock enhancement in Japan. Aquaculture, 2001, 200 (1 -2), p. 33-53.; Yang, X.; Zhang, S.; Liu, J.; Gao, Q.; Dong, S.; Zhou, C. Deep learning for smart fish farming: Applications, opportunities and challenges. Rev. Aquac. 2020, 13, 66–90.; Ше Сон Гун. Государственное регулирование и поддержка малого предпринимательства в сфере прибрежной рыбохозяйственной деятельности. Автореф.дисс.на соискание уч. степ. канд.экон.наук. Иркутск-2012. 24-с.; Джонс С.У., Карпол А., Фридман С., и др. Последние достижения в области использования одноклеточного белка в качестве кормового ингредиента в аквакультуре. Современное мнение в области биотехнологий. 2020. № 61, Р. 189–197. URL: <https://doi.org/10.1016/j.copbio.2019.12.026>;

⁴ Чернявский И.А. Повышение экономической эффективности производства товарной рыбы (на материалах Новосибирской области). Дисс.на соис.уч.степ.к.э.н. Новосибирск 2016.; Котов Н.М. Совершенствование государственного управления развитием региональных рыбохозяйственных комплексов дальнего востока. Автореф.дисс.на соис.уч. степ.к.э.н. Москва 2016. 25-с.; Бородин Д. В. Совершенствование организационно-экономического механизма хозяйствования предприятий рыбной промышленности. Автореф.дисс.на соис.уч.степени к.э.н. М.:–2012.; Горшечников В.П. Пути становления и развития малого предпринимательства в рыбном хозяйстве (на примере Сахалинской области). Автореф.дисс.на соис. уч. степ. к.э.н. М.:1997.; Интересова Е.А. Пресноводная аквакультура: учеб.пособие.–Томск:ТомГУ,2021.–128 с.; Лагуткина, Л.Ю., Пономарев С.В. Органическая аквакультура как перспективное направление развития рыбохозяйственной отрасли (обзор) // Сельскохозяйственная биология. – 2018. – № 53 (2). – С. 326-336.; Привезенцев Ю. А., Власов В.А. Рыбоводство. — М.: Мир, 2004. — 456 с.; Козлов В.И., Козлов А.В. Учебник по товарному рыбоводству: экономические решения: учеб. для вузов.- М.: Изд-во ФГУ «Росинформагротех», 2017. - 260 с.Комлацкий В.И., Комлацкий Г.В., Величко В.А. Рыбоводство: учебник для СПО – Санкт-Петербург: Лань, 2020. – 200 с.;

Mamlakatimizda ham qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, jumladan baliqchilik iqtisodiyotini ko‘pgina olimlar tadqiq etgan bo‘lib, ular T.Doschanov, Q.Ubaydullayev, J.K.Sauxanov, A.Q.Aytimbetov, T.X.Farmanov, F.M.Yusupova, B.Nosirov, A.Eraliev, R.X.Ergashev, U.X.Begaliyev, S.R.Xalikov, U.X.Beglayev, I.A.Yunusov, S.Q.Xusenov, D.S.Niyozov, G‘.M.Sayfullayev, D.R.Shohimardonov, B.G.Kamilov, R.B.Kurbanov, T.V.Salixov, S.M.Mirzataev, B.A.Sarsenbaev, X.B.Rajapov⁵ kabi olimlarning ilmiy ishlarida agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida axborot texnologiyalarini qo‘llash, baliqchilik sohasi ilmiy asoslarda tahlil etilgan bo‘lib, sohani takomillashtirish imkoniyatlari o‘rganilgan.

O‘zbekiston sharoitida baliq etishtirish imkoniyatlarini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatida baliqchilik xo‘jaliklarida aqlli texnologiyalarni qo‘llash orqali rentabellik darajasini kamida ikki barobarga oshirishga erishilmoqda. Shuningdek, baliq mahsulotlari tannarxi bizning bozorlarimizda juda ham qimmat bo‘lib, bu iste‘molchilar auditoriyasini kengaytirishga katta to‘sqinlik qilmoqda. Tannarxni pasaytirishda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish, raqamlashtirishni joriy etish, an‘anaviy baliqchilik xo‘jaliklarida baliq yetishtirish samaradorligi va aqlli baliqchilik xo‘jaliklarining samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib ikki xil usulning ham kamchilik va afzalliklari ilmiy izlanishlar orqali o‘rganilishi lozimligi shu sababli ham aqlli baliqchilikni joriy etish, xarajatlarini pasaytirish, optimallashtirish ko‘rsatkichini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida aniq ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi, alohida bu mavzuni tanlash zaruriyatini keltirib chiqardi va uning maqsad hamda vazifalari belgilandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Orol dengizi muammosi” paydo bo‘lguniga qadar juda katta baliq zaxirasi va baliqchilik xo‘jaliklari mavjud edi. Baliqchilik bo‘yicha respublika

⁵ Сауханов Ж.К. Оценка влияния эффективного использования водных ресурсов на объем производства сельскохозяйственных продукции. // Journal of Economy and entrepreneurship, ISSN 1999-2300, Volume 15, 2023 № 9 (134). 994-999 стр.; Ubaydullov K. Современное состояние и перспективы развития отраслей промышленности и сельского хозяйства в регионе низовьев Амударьи. // Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 2015 № 1 (26), 31-35 стр.; Досчанов Т. Эколого-экономические проблемы химизации агропромышленного комплекса в Узбекистане. –Т.: Фан, 1989. 9,0 п.л.; Mirzataev S.M. Қишлоқ хўжалигида ахборот технологияларидан фойдаланиш йўналишларини такомиллаштириш. Монография. “Lesson press” нашриёти. Тошкент, 2022 й. 122 бет; Sarsenboyev B.A. Baliqchilik sohasi rivojlanishini marketing yondashuvlari asosida takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Monografiya. -T.: Lesson Press, 2021. - 141 b.; Rajapov X.B. Baliqchilik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati/ Nukus – 2023. 32-b.; Aytimbetov A.Q. Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliq o‘stirish manbalari, usullari va ulardan foydalanish samaradorligining hozirgi holati. // Journal of Universal Science Research, Volume 15, 2023 №1(8), 156-165 b.; Фарманов Т. Х., Юсупова Ф. М. Вопросы стимулирования внедрения водосберегающих технологий в сельском хозяйстве // Актуальные вопросы экономики и агробизнеса. – 2022. – С. 147-153.; Nosirov B. Baliqchilik iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. -Andijon, 2020.- 286 b.; Eraliyev A. Baliqchilik korxonalarida mahsulot tannarxi va sotish hisobini takomillashtirish// Экономика и социум. -№ 5(108). -2 2023; Begaliyev U.X. Baliqchilik xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqt. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) diss. - Qarshi, 2021-y.; Ergashev R.X., Xalikov S.R., Beglayev U.X. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Navro‘z, 2020. – 298 b.; Yunusov I. A. Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari: i.f.f.d. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. – T.: 2020. – 136 b.; Xusenov S.Q., Niyozov D.S., Sayfullayev G‘.M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari talablari uchun o‘quv qo‘llanma). -Buxoro, Buxoro, 2010, –99 b.; Shohimardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish. -T.: HILOL MEDIA, 2010. – 26 b.; Kamilov B.G., Kurbanov R.B., Salixov T.V. Baliqchilik (O‘zbekistonda karp baliqlarini ko‘paytirish). -T.: Chinor, 2003. – 13 b.

yetakchi o‘rinlarda turar edi. Yuzaga kelgan ekologik beqarorlik tufayli Qoraqalpog‘istonda baliqchilik xo‘jaliklari juda katta to‘siqlarga duch kelmoqda. Masalan, respublikamiz shimoliy, katta qismi sho‘rlangan yerlardan iborat, suv resurslari o‘ta taqchil hududi joylashgan bo‘lib, murakkab iqlimiy sharoit sabab qishloq xo‘jaligi bir qancha yo‘nalishlarda mummolarga uchramoqda. Shu sababli dissertatsiya ishi Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1-77 raqamli “Janubiy Orol bo‘yi ekologik sharoitida Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishning mintaqaviy metodikasi, metodologiyasi va strategiyasini ishlab chiqish (Quyil Amudaryo iqtisodiy tumani misolida)” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2015-2017 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilikda aqlli texnologiyalardan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- baliqchilik sohasining zarurati, o‘ziga xos xususiyatlari va nazariy asoslarini tadqiq qilish;

- baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslarini o‘rganish;

- baliqchilik sohasida aqlli texnologiyalardan foydalanishda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalarini qarab chiqish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholash;

- hudud baliqchilik xo‘jaliklaridagi samaradorlik ko‘rsatkichlari, uning hozirgi holati statistik tahlilini amalga oshirish;

- an‘anaviy va aqlli baliqchilikda iqtisodiy samaradorligini qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

- baliqchilikda qiymat zanjirini yaratish imkoniyatlarini tahlil qilish;

- jahonda baliq yetishtirishni ko‘paytirish imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llarini o‘rganish;

- baliqchilikda tur va bosh soni optimal qiymatlarini aqlli texnologiyalarni qo‘llagan holda aniqlash va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini baholash;

- Qoraqalpog‘istonda baliqchilikni rivojlantirishning istiqboldagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib Qoraqalpog‘iston Respublikasi baliqchilik xo‘jaliklari faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti qishloq xo‘jaligining baliqchilik sohasida innovatsion texnologiyalar qo‘llanishiga ko‘ra samaradorlikni oshirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, abstrakt fikrlash, grafik, monografik kuzatish va ekspert baholash, regression tahlil,

korrelyatsion tahlil, iqtisodiy-matematik, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatini innovatsion va raqamli texnologiyalarga ko‘ra tashkil qilish yo‘nalishlari asosida foyda hajmini har bir hovuz bo‘yicha oshirish (61975 ming so‘m) imkoniyatlari asoslanib, aqlli baliqchilikka ko‘ra foyda xarajatdan sezilarli darajada yuqori (12,0 marta) bo‘lishi asoslab berilgan;

baliqchilikni samarali rivojlantirishda baliq moyi va baliq taomlariga talabning shakllanish modeli istiqbol talablari va soha (ishlab chiqarish)da qo‘shilgan qiymat zanjirining asosiy bosqichlari tasnifida konservalash ustuvorligiga ko‘ra takomillashtirilgan (IMPACT modeli);

baliqchilik xo‘jaliklari foydasini maksimallashtirishda ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mahsulot yetishtirish maydoni me‘yori, bir birlik baliq yetishtirishda ishchi kuchi sarfi, ozuqa miqdori va organik-mineral moddalar sarfi kabilarga ko‘ra baliq turi va miqdorining optimal darajasini aniqlash imkoniyatlari kengaytirilib, shunga ko‘ra uning (<https://fpom.uz/>) dasturiy ta‘minoti taklif qilingan;

Qoraqalpog‘istonda baliqchilikni samarali rivojlantirishga ko‘ra asosiy ko‘rsatkichlarining 2024-2028 yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli ekonometrik modellar asosida prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanishning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi, global baliqchilik bozori segmentatsiyasi turkumlashtirilib, aqlli akvakulturada ishlab chiqarishning afzalliklari va kamchiliklari aniqlashtirilgan;

baliqchilikda tur va bosh soni optimal qiymatlarini aqlli texnologiyalarni qo‘llagan holda aniqlash samaradorligi inobatga olingan holda aqlli zamonaviy texnologiyalarga asoslangan baliqchilikni boshqarishni dasturiy ta‘minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasi rasmiy manbalaridan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda respublika va xorij iqtisodchi olimlarining qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarga doir tadqiqot ishlaridagi ilmiy natijalarga tayanilganligi, ma‘lumotlarning uzoq muddatliligi va rasmiy manbalardan olinganligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida tanlab olingan baliqchilik obyektlaridan olingan so‘rovnoma ma‘lumotlariga asoslanganligi, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy asoslari baliqchilik sohasida aqlli texnologiyalarni qo‘llash usullari, xarajatlari, undan keladigan foyda, oddiy usuldan foydalanadigan xo‘jaliklaridan ustun jihatlari samaradorlik ko‘rsatkichlaridagi farqli jihatlari, baliq mahsulotlari tannarxi o‘rtasidagi tafovutni

tahlil etishda, qaysi baliqchilik xo‘jaliklarini joriy etish lozim ekanligini tanlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan qishloq xo‘jaligi korxonalari joylashgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ekologik barqarorlikni oshirishga, tadbirkorlik subyektlari soni va ko‘lamining kengayishiga, bu orqali bandlikni ta‘minlash hamda daromadlarini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatini innovatsion va raqamli texnologiyalarga ko‘ra tashkil qilish yo‘nalishlari asosida foyda hajmini har bir hovuz bo‘yicha oshirish (61975 ming so‘m) imkoniyatlari asoslanib, aqlli baliqchilikka ko‘ra foyda xarajatdan sezilarli darajada yuqori (12,0 marta) bo‘lish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 11-martdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №155-13-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 2-apreldagi 02/017-966-son ma‘lumotnomasi). Taklifdan hududdagi baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatini samarali tashkil qilishda va ular faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan;

baliqchilikni samarali rivojlantirishda baliq moyi va baliq taomlariga talabning shakllanish modeli istiqbol talablari va soha (ishlab chiqarish)da qo‘shilgan qiymat zanjirining asosiy bosqichlari tasnifida konservalash ustuvorligiga ko‘ra takomillashtirish (IMPACT) bo‘yicha taklif Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 11-martdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №155-13-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 2-apreldagi 02/017-966-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif baliqchilikni samarali rivojlantirishga ko‘ra istiqbolda sohada qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar turi va hajmini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

baliqchilik xo‘jaliklari foydasini maksimallashtirishda ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mahsulot yetishtirish maydoni me‘yori, bir birlik baliq yetishtirishda ishchi kuchi sarfi, ozuqa miqdori va organik-mineral moddalar sarfi kabilarga ko‘ra baliq turi va miqdorining optimal darajasini aniqlash imkoniyatlari va uning (<https://fpom.uz/>) dasturiy ta‘minoti bo‘yicha taklif Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 11-martdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №155-13-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 2-apreldagi 02/017-966-son ma‘lumotnomasi). Taklif va

dasturdan foydalanish baliqchilik xo‘jaliklarida resurslar hajmini oshirmagan holda baliq turi va sonini optimal variantlarini aniqlash asosida ular foydasini 20-25 foizga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Qoraqalpog‘istonda baliqchilikni samarali rivojlantirishga ko‘ra asosiy ko‘rsatkichlarining 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli ekonometrik modellar asosida prognoz parametrlari bo‘yicha takliflar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 11-martdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №155-13-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 2-apreldagi 02/017-966-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va mehnatni oqilona tashkil etish kabilarga ko‘ra baliqchilik mahsulotlari hajmini istiqbol davrda oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta maqola milliy va 1 ta maqola xorijiy jurnallarda chop qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning va ma‘lumotlar bazasining rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi 3 ta mualliflik guvohnomalari rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 133 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, shuningdek, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, baliqchilik sohasining zarurati, o‘ziga xos xususiyatlari va nazariy asoslari, baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalari o‘rganilgan va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan ko'pgina mamlakatlarda baliqchilik ko'pincha dehqonchilik faoliyatiga qo'shimcha mashg'ulot sifatida qaraladi. Ammo okean, dengiz yaqin bo'lgan mamlakatlarda bu soha juda rivojlangan asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Bunday imkoniyatga ega bo'lmagan, lekin ichki suv havzalariga ega bo'lgan mamlakatlar uchun ham baliqchilik muhim soha hisoblanadi va uni qo'llab-quvvatlash qo'shimcha faoliyat sifatida rivojlantirilishi mumkin.

Jahon aholisi sonining oshib borishi ularning oziq-ovqat iste'moli tarkibida baliq mahsulotlari ulushining iste'moli kamayib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Baliq mahsulotlarining jahon xalqlari bo'yicha jon boshiga iste'moli 1961-yildagi 9,1 kg/kishidan 2023-yilda 20,7 kg/kishiga qadar oshgan, bu 2,27 marta o'sishni anglatmoqda. Bu ma'lumotlar baliqchilik mahsulotlari jon boshiga iste'moli hamma joyda ham bir xil emasligini ham ifodalaydi (1-rasm).




1-rasm. Jahonning turli hududlarida baliq mahsulotlarining jon boshiga iste'moli holati (2023-yil, kg/kishi)⁶

Baliqchilik mahsulotlari jon boshiga iste'molining eng yuqori ko'rsatkichi Osiyoda (25 kg/kishi) bo'lsa, Afrika xalqlarida bu ko'rsatkich (9 kg/kishi) ancha past hisoblanadi.

So'nggi yillarda turli mamlakatlarda turlicha ko'rinishdagi baliqchilik xo'jaliklari faoliyat olib bormoqda.

Asosiy ko'rinishdagi baliqchilik xo'jaliklarining ko'rinishlari rasmda keltirilgan (2-rasm).

⁶ BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlari - <https://www.fao.org/>



2-rasm. Baliqchilik xo'jaliklarining turlari⁷

Baliqchilik sohasi mahsulotlarini yetishtirish miqdori jahon mamlakatlarida doimiy o'sib bormoqda, bu borada Xitoy yaqqol ustunlikka ega (1-jadval).

1-jadval
Jahonda va Markaziy Osiyo mamlakatlarida baliqchilik mahsulotlari yetishtirish holati dinamikasi (ming tonna)⁸

№	Hududlar va ko'rsatkichlar	Yillar						2023-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi	
		2010	2013	2016	2019	2022	2023	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, foiz
1.	Jahon	165002,3	184564,6	197334,9	211345,2	213618,1	223245,5	58243,2	135,3
2.	Xitoy	62843,8	70662,6	78337,6	82593,8	88567,7	90465,7	27621,9	144,0
	ulushi, foiz	38,1	38,3	39,7	39,1	41,5	40,5	2,4 punkt oshgan	
3.	Markaziy Osiyo - jami	74,4	90,0	127,2	196,2	278,1	290,0	215,6	3,9 marta
	ulushi, foiz	0,0451	0,0488	0,0644	0,0928	0,1302	0,1299	0,0848 punkt oshgan	
4.	O'zbekiston	10,7	37,5	65,3	121,7	185,3	195,9	185,2	18,2 marta
	ulushi, foiz	0,0065	0,0203	0,0331	0,0576	0,0867	0,0877	0,0812 punkt oshgan	
	MOdagi ulushi, foiz	14,4	41,7	51,4	62,0	66,6	67,5	53,1 punkt oshgan	
5.	Qozog'iston	47,1	35,5	43,2	52,6	52,1	52,4	5,3	111,3
	ulushi, foiz	0,0285	0,0192	0,0219	0,0249	0,0244	0,0235	0,0051 p-kt pasaygan	
	MOdagi ulushi, foiz	63,2	39,4	34,0	26,8	18,7	18,1	45,2 punkt pasaygan	

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

⁸ Jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari (WorldBankGroup - <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

1-jadvalning davomi


№	Hududlar va ko'rsatkichlar	Yillar						2023-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi	
		2010	2013	2016	2019	2022	2023	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, foiz
6	Qirg'iziston	0,4	0,4	2,0	4,3	20,7	21,4	21,1	56,5 marta
	ulushi, foiz	0,0002	0,0002	0,0010	0,0020	0,0097	0,0096	0,0094 punkt oshgan	
	MOdagi ulushi, foiz	0,5	0,5	1,6	2,2	7,5	7,4	6,9 punkt oshgan	
7	Tojikiston	1,2	1,6	1,5	2,5	4,7	5,0	3,8	4,1 marta
	ulushi, foiz	0,0007	0,0009	0,0008	0,0012	0,0022	0,0022	0,0015 punkt oshgan	
	MOdagi ulushi, foiz	1,6	1,8	1,2	1,2	1,7	1,7	0,1 punkt oshgan	
8	Turkmaniston	15,0	15,0	15,1	15,1	15,3	15,3	0,3	102,1
	ulushi, foiz	0,0239	0,0213	0,0192	0,0183	0,0172	0,0170	0,0069 p-kt pasaygan	
	MOdagi ulushi, foiz	20,2	16,7	11,9	7,7	5,5	5,3	14,9 punkt pasaygan	

Jahonda baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish 2010-2023-yillar oralig'ida 58243,2 ming tonnaga yoki 35,3 foizga oshgan. Eng ko'p baliq Xitoyda 2023-yilda 90465,7 ming tonna baliq yetishtirilib, 2010-yilga nisbatan 27621,9 ming tonnaga yoki 44 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich bilan Xitoy jahonda baliq mahsulotlarining bu davrda 38,1-40,5 foiz qismini yetishtirgan, bu ko'rsatkich 2,4 punktga oshgan. Bu Xitoyning jahon baliqchiligida katta salmoqqa ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiyaning **“Baliqchilik xo'jaliklarida samaradorlikni oshirishda aqlli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holat tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida hudud baliqchilik xo'jaliklaridagi samaradorlik ko'rsatkichlari, uning hozirgi holati tahlili, an'anaviy va aqlli baliqchilikda iqtisodiy samaradorlik tahlili, baliqchilikda qiymat zanjirini yaratish imkoniyatlarining tahlili amalga oshirildi.

Baliqchilik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim yo'nalish sifatida qaralib baliq yetishtirish miqdori yildan-yilga oshib bormoqda (3-rasmga qarang).

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida 2010-yilda 10,7 ming tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 195,9 ming tonnaga yetgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa, 2010-2023-yillarda baliq yetishtirish 0,6 ming tonnadan 12,1 ming tonnaga yetgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida yetishtirilgan baliq ulushi 2010-yildagi 5,4 foizdan 2018-yilda 10,8 foizgacha ko'tarilgan, 2023-yilga kelib esa 6,2 foizni tashkil etgan.



3-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida baliq yetishtirish miqdorining o'zgarishi (ming tonna)⁹

Qoraqalpog'iston Respublikasi baliqchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlarida baliq yetishtirish va ovlash miqdorining ham oshganligi aniqlandi (2-jadval).

**2-jadval
Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik subyektlarida ovlangan baliq hajmining o'zgarishi (tonna)¹⁰**

Yillar	Fermer xo'jaliklar, tonna	Ulushi, foiz	Dehqon xo'jaliklar, tonna	Ulushi, foiz	Qishloq xo'jaligi korxonalarini, tonna	Ulushi, foiz	Barcha toifadagi xo'jaliklar, tonna
2010	423,4	72,5	66,0	11,3	94,6	16,2	584,0
2011	788,3	70,9	119,0	10,7	204,7	18,4	1 112,0
2012	1332,6	70,3	197,2	10,4	366,0	19,3	1 895,7
2013	1834,0	69,1	257,4	9,7	562,5	21,2	2 654,0
2014	1771,3	66,6	244,5	9,2	642,2	24,2	2 658,0
2015	2171,0	63,7	303,5	8,9	935,5	27,4	3 410,0
2016	2736,3	60,6	365,7	8,1	1413,0	31,3	4 515,0
2017	3548,4	57,6	360,4	5,9	2248,4	36,5	6 157,2
2018	5370,4	54,5	479,1	4,9	4007,2	40,7	9 856,7
2019	6573,8	51,2	565,3	4,4	5707,9	44,4	12 847,0
2020	7083,0	49,0	592,1	4,1	6766,8	46,9	14 441,9
2021	5832,7	46,2	530,8	4,2	6273,8	49,6	12 637,3
2022	4819,7	42,3	466,8	4,1	6099,4	53,6	11 385,9
2023	4811,3	39,6	485,9	4,0	6849,5	56,4	12 146,6

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik subyektlarida ovlangan baliq hajmi turlicha o'zgarib borgan. Bunda 2010-yilda Respublikada jami 584,0 tonna baliq ovlangan bo'lsa, uning 72,5 foizi yoki 423,4 tonnasi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan. Jadval ma'lumotlari baliq yetishtirishda borgan sari fermer xo'jaliklari ulushi kamayib borayotganligini ko'rsatsa-da, ammo baliq yetishtirish miqdorining ko'payganligini ko'rish mumkin. Fermer xo'jaliklarida baliq yetishtirish miqdori 2010-2023-yillarda 423,4 tonnadan 4811,3 tonnaga qadar oshgan, bunda baliq yetishtirish ulushi bu davrda

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

72,5 foizdan 39,6 foizga qadar kamaygan. Xuddi shunday holatni dehqon xo‘jaliklari misolida ham ko‘rish mumkin.

Tadqiqotlarimiz natijasida raqamli texnologiyalarning baliqchilik xo‘jaligidagi vazifalarini umumlashtirdik. Yuqoridagi raqamli texnologiyalarning baliqchilikda ta‘minot zanjiri bo‘ylab vazifalari unda taqsimlangan (3-jadval).

3-jadval

Baliqchilikda foydalaniladigan aqlli texnologiyalar va ularning vazifalari¹¹

№	Raqamli texnologiyalar nomi	Vazifalar
1.	Robototexnika	<ul style="list-style-type: none"> – suv havzalarini tozalash va shikastlangan to‘rlarni ta‘mirlash kabi murakkab vazifalar va mashaqqatli ishlarni hal qilish; – xatti-harakatlarni kuzatish, kasal baliqlarni olib tashlash, oziqlantirish; – vaksinalarni in‘ektsiya qilish; – to‘rlarni suvsiz tekshirish, baliqlarning sog‘lig‘i va qochishlarini baholash.
2.	Dronlar	<ul style="list-style-type: none"> – suv ustidan va ostidan baliqchilik xo‘jaliklarini kuzatish; – shikastlangan havza joylarini aniqlash; – baliqchilik faoliyatini yaxshilash uchun sun‘iy intellekt va bulutli hisoblash ma‘lumotlarni yig‘ish.
3.	Sensorlar/ Masofadan zondlash	<ul style="list-style-type: none"> – vaqt davomida suv ma‘lumotlarini yig‘ish; – hovuzlar va qafaslardagi baliqlarning ochlik darajasini kuzatish uchun suvosti datchiklaridan foydalanish; – baliq metabolizmi va yurak urish tezligini aniqlash; – kam isrofgarchilik va yaxshilangan ozuqa vositalaridan foydalanish.
4.	Sun‘iy intellekt	<ul style="list-style-type: none"> – maqbulroq va tezkor qarorlar qabul qiladi; – kamroq mehnat talab qiladi; – oziqlantiruvchilar, suv sifati monitoringi va nazorati, yig‘ish va qayta ishlash samaradorligini oshiradi.
5.	Kengaytirilgan reallik (AR)	<ul style="list-style-type: none"> – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish; – suv ostida dronlar va robotlarga ko‘maklashish; – baliqlarning xatti-harakatlarini, to‘r teshiklarini va o‘limini nazorat qilish; – xavfni kamaytirish; – suv parametrlarini o‘lchash.
6.	Virtual reallik (VR)	<ul style="list-style-type: none"> – raqamli interfeys (naushniklar) yordamida ekologik vaziyatlarni real vaqtda simulyatsiya qilish; – ta‘lim, o‘qitish va treninglar; – inson kompyuteri va multimedia platformalaridan foydalangan holda yuqori xavfli muhitlar (masofaviy) uchun ishlatiladi.
7.	3D bosib chiqarish	<ul style="list-style-type: none"> – gidroponik tizimlarni chop etish; – 3D tekshirish qurilmalari; – suv parametrlarini kuzatish uchun 3D bosilgan suv sensorlari; – uskunalar va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.
8.	Internet qurilmalari	<ul style="list-style-type: none"> – baliqchilik faoliyati bo‘ylab katta ma‘lumotlarga ulanish; – ijtimoiy tarmoqlardan birgalikda foydalanish.
9.	Blokcheyn	<ul style="list-style-type: none"> – kiberxavfsizlik, xavfsiz ma‘lumotlarni almashish; – to‘lovni qayta ishlash; – sanoat muhofazasi; – qiymat zanjiri bo‘ylab to‘liq kuzatuvchanlik; – oziq-ovqat isrofgarchiligini kamaytirish, xavfsizligini yaxshilash.

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

Jadvalda to‘qqizta raqamli texnologiyalarning baliq ishlab chiqarishdagi funksiyalari keltirib o‘tilgan bo‘lib, har birining faoliyati, muhim jihatlari, bajaradigan ishlari tavsiflangan.

Baliqchilikda raqamli texnologiyalar va intensiv yo‘llardan foydalanish hamda rivojlantirish borasida bir qancha izlanishlar amalga oshirildi hamda raqamlashtirilgan aqlli baliqchilik xo‘jaliklarining raqamlashtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlilini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan formulalar umumlashtirib keltirildi (4-jadval).

4-jadval

Aqlli baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini baholash¹²

№	Nomi	Formula	Izoh
1.	Baliqchilikda texnologik qurollanganlik darajasi	$B_q = \frac{F_o}{S_v}$	B_q - Baliqchilikda texnologik qurollanganlik darajasi; F_o - asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati; S_v - ishlatilayotgan hovuzlar maydoni.
2.	Baliqchilikda raqamlashtirish darajasi	$B_R = \frac{Q_{rt}}{S_v}$	B_R - baliqchilikda raqamlashtirish darajasi; Q_{rt} - joriy etilgan raqamli texnologiyalar qiymati; S_v - ishlatilayotgan hovuzlar maydoni.
3.	Baliqchilik raqamlashtirilganda 1 ta hovuzga to‘g‘ri keladigan xarajat	$X_h = \frac{I_{shx}}{S_h}$	X_h - Bitta hovuzga to‘g‘ri keladigan umumiy xarajat; I_{shx} - ishlab chiqarish xarajatlari; S_h - ishlatilayotgan hovuz soni.
4.	Baliqchilikda raqamlashtirish xarajatlari	$R_{tx} = X_h - I_{shx}$	R_{tx} - raqamlashtirish xarajatlari; X_h - 1 ta hovuzga to‘g‘ri keladigan umumiy xarajatlari.
5.	Baliqchilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishdan olingan qo‘shimcha foyda	$R_{tf} = U_f - B_f$	R_{tf} - raqamli texnologiyalardan kelayotgan foyda; U_f - raqamli texnologiya joriy etilgandan keyingi umumiy foyda; B_f - bazis foyda (ya‘ni oldingi holatdagi foyda).
6.	Baliqchilikda raqamli texnologiyalarining samaradorlik ko‘rsatkichi	$B_{rr} = \frac{R_{tf}}{R_{tx}} * 100$	B_{rr} - baliqchilikda raqamlashtirish rentabelligi; R_{tx} - joriy yildagi raqamli texnologiyalarini joriy etish xarajatlari; R_{tf} - joriy yilda raqamli texnologiyalardan keltirilgan foyda

An’anaviy baliqchilik xo‘jaligi va aqlli baliqchilik xo‘jaligidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan (5-jadvalga qarang).

5-jadval ma‘lumotlari tahlili ko‘rsatishicha, ikkita xo‘jalik – bittasi an’anaviy baliqchilik xo‘jaligi, ikkinchisi aqlli raqamlashtirilgan baliqchilik xo‘jaligi iqtisodiy ko‘rsatkichlari solishtirilgan. Ikkita xo‘jalikdagi 1 ta hovuz uchun sarflanadigan xarajatlar va daromad darajasini o‘rganish uchun ikkita xo‘jalik bir xil chavoqlar bilan ta‘minlandi.

¹² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

5-jadval

Baliqchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari (bitta hovuz uchun)¹³

№	Ko‘rsatkichlar	An‘anaviy baliqchilik xo‘jaliklari	Aqli baliqchilik xo‘jaliklari	O‘rtasidagi farq
1.	Baliq chavoqlari	24000	24000	-
2.	Jami baliq mahsuloti (dona)	16800	22350	5550
3.	Sotish bahosi (so‘m)	15000	10000	5000
4.	Tannarx (so‘m)	11478	4233	-7245
5.	Jami xarajat (ming so‘m)	185103	94628	-90475
6.	Jami daromad (ming so‘m)	252000	223500	-28500
7.	Jami foyda (ming so‘m)	66897	128872	61975
8.	Rentabellik darajasi, foiz	36,1	136	99,9

Ikkita xo‘jalikka bir xil 24000 dona chavoq yetkazib berildi. Bir yil davomida xo‘jalik faoliyati tahlil qilindi. Bunga ko‘ra mahsuldorlik ko‘rsatkichlari ham farq qildi. Raqamlashtirilgan xo‘jaliklarda mahsuldorlik ko‘rsatkichi an‘anaviy xo‘jaliklarga nisbatan 33 foizga yuqori ekanligini hamda jami xarajatlarning ham 90475 ming so‘mga kam ekanligini ko‘rsatdi. Buning sababi an‘anaviy baliqchilik xo‘jaliklarida mehnat xarajatlari ancha katta xarajat turi hisoblanadi. Aqli baliqchilik xo‘jaliklarida bu xarajat anchagina pasayishi kuzatildi. Buning evaziga tannarxning ham 7245 so‘mga va sotish bahosining ham 5000 so‘mga arzonlashganini ko‘rdik. Daromad darajalarida ham 28500 ming so‘m tafovut kuzatildi. Ammo, bunga sotish bahosining pasayganligi sabab bo‘ldi. Foydada 61975 ming so‘mga o‘shirish kuzatildi, bunga esa xarajatlarning pasayishi sabab bo‘lgan. Albatta, rentabellik ko‘rsatkichi 99,9 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Aqli baliqchilikni joriy etish orqali korxonalarda baliqchilikda mahsuldorlikni oshirish, tannarxni, sotish bahosini pasaytirish hamda foydani oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, taklif qilinayotgan aqli baliqchilikning samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash me‘zonlari bo‘yicha yuqoridagi xo‘jaliklarimiz ma‘lumotlaridan foydalangan holda tahlil etildi (6-jadval).

6-jadval

Aqli baliqchilikda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari¹⁴

№	Nomi	Formula	Hisob
1.	Baliqchilikda raqamlashtirish xarajatlari	$R_{tx}=X_h-Ish_x$	$5025=94628-Ish_x$ $Ish_x=89603$ ming so‘m
2.	Baliqchilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishdan olingan qo‘shimcha foyda	$R_{tf}=U_f-B_f$	$R_{tf}=128872-66897=61975$ ming so‘m
3.	Baliqchilikda raqamli texnologiyalarining samaradorlik ko‘rsatkichi	$B_{rr}=(R_{tf}:R_{tx})*100$	$B_{rr}=61975:5025=12$ barobar

¹³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

6-jadval ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, raqamlashtirish orqali foydaning 1 ta hovuzdan 61975 ming so'mga oshishiga erishish mumkin. Bu esa, aqlli va an'anaviy usullarda foydaning shakllanishi asosida samaradorlik baholangan, aqlli baliqchilikni joriy etishda foyda xarajatlardan 12,0 marta yuqori bo'lishi asoslangan.

Yuqoridagi holatlarni tahlil qilgan holda tadqiqotlarimiz natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasida aqlli baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishning SWOT tahlili amalga oshirildi (7-jadval).


7-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida aqlli baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishning SWOT tahlili¹⁵

Kuchli:	Zaif:
Baliq, yem va dori-darmonlarni yetkazib beruvchilar tarmog'i yaxshi rivojlanganligi; Iste'molchilarning ko'pligi; Raqamli texnologiyalar orqali an'anaviy xo'jaliklardan xarajatlarning anchayin pasayishi.	baliq yetishtiruvchi va bu sohada katta mijozlarni jalb qilish uchun bizga vaqt kerak bo'lishi mumkin; zaiflikni yengish, uni biznes uchun katta afzalliklarga aylantirish uchun vaqt sarfi
Imkoniyatlar:	Tahdid:
Baliqchilik uchun doimiy iste'molchi bo'lgan faoliyatlar uchun uzluksiz ravishda baliq yetkazib berish; Baliqchilikda aqlli texnologiyalar orqali mahsuldorlikni oshirish	- global iqtisodiy tanazzul; - yomon iqlim; - tabiiy ofatlar (epidemiya); - noqulay hukumat siyosati.

Bu choralar Qoraqalpog'istonda baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratadi va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Baliqchilikda qiymat zanjiri ishlab chiqarishdan tortib oxirgi iste'molgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi (4-rasm).



4-rasm. Baliqchilikda qiymat zanjirining tavsifi¹⁶

Baliqchilik qiymat zanjiri SWOT tahlili sohadagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, imkoniyatlarni belgilash va potensial tahdidlarni baholashga yordam beradi. Tadqiqotimizda baliqchilik qiymat zanjiriga oid SWOT tahlili amalga oshirildi (5-rasm).

¹⁵ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan




5-rasm. Baliqchilik faoliyati qiymat zanjirining SWOT tahlili¹⁷

SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, baliqchilik sohasida mavjud kuchli tomonlardan foydalanib, imkoniyatlarni to'liq ishga solish va zaif tomonlarni bartaraf etish muhimdir. Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun innovatsiyalarni joriy etish, ekologik muvozanatni saqlash va xalqaro raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Baliqchilik sohasida samaradorlikni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish”** nomli uchinchi bobida jahonda baliq yetishtirishni ko'paytirish imkoniyatlaridan foydalanish, baliqchilikda tur va bosh soni optimal qiymatlarini aqlli texnologiyalarni qo'llagan holda aniqlash samaradorligi o'rganilgan, Qoraqalpog'istonda baliqchilikni rivojlantirishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Baliqchilik faoliyati aholini oziq-ovqat bilan, sanoatni muhim xomashyo mahsulotlari bilan, xizmat ko'rsatish tizimlarini ham resurslar bilan, farmasevtikani ham xomashyo bilan ta'minlaydi. Shu orqali bu faoliyat ko'plab tarmoqlar faoliyatiga ijobiy ta'sir etish xususiyatiga ega (6-rasm).

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi



6-rasm. Baliqchilikda baliq moyi va baliq taomlariga talab shakllanishning IMPACT modeli sxemasi¹⁸

6-rasmda baliqchilikda baliq moyi va baliq taomlariga talab shakllanishning IMPACT modeli sxemasi tasvirlangan bo'lib, baliqchilik faoliyatining qanday tarzda rivojlanib borishi tasvirlangan. Unga ko'ra, baliqchilik baliq ovlash va akvakultura shaklida ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yadi. Ishlab chiqarish natijasiga ko'ra, bozor muvozanati bahoni shakllantirib, bu o'z navbatida talabning turli ko'rinishlarini shakllantiradi. Baliqchilik ko'proq oziq-ovqat talabi shaklida ishlasada, talabning kamayishi konservalash sanoatiga yo'l ochadi. Bu sanoat o'z navbatida, baliq yetishtirishdagi chiqindi mahsulotlarini ham qayta ishlaydi. Talabning oshishi aholi sonining oshishi bilan yuz beradi va bu YaIMning ham oshishiga olib keladi. Aholi soning oshishi talabning boshqa shakllari, yana oziq-ovqat talabining oshishiga olib keladi. Bunday ko'rinishdagi talablarning oshishi tabiiy baliq ovlash imkoni cheklangan sharoitda intensiv akvakulturani yanada rivojlantirishga sabab bo'ladi. Jamiyat talabi turli zavodlar va oziq-ovqat korxonalarining (restoranlar, kafelar va boshqalar) ham faoliyatiga sabab bo'ladi.

Qoraqalpog'istonda talabga yetarli darajada zarur bo'lgan chavoq soni hisoblab chiqildi (8-jadval).

¹⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

8-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi baliqchiligini rivojlantirishda zaruriy chavoq soni tahlili¹⁹

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar						2023-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarishi	
			2010	2013	2016	2019	2022	2023	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, foiz
1	Jami yetishtirilgan baliq	ming tonna	0,6	2,7	4,5	12,8	11,4	12,1	11,6	2080,0
2	Aholi soni	ming kishi	1680,9	1736,5	1817,5	1898,3	1976,2	2002,7	321,8	119,1
3	Jon boshiga yetishtirilgan baliq	kg/kishi	0,347	1,528	2,484	6,768	5,762	6,065	5,718	1745,7
4	Tibbiy me‘yor	kg/kishi	12,0	12,0	12,0	12,0	12,0	12,0	0,0	100,0
5	Tibbiy me‘yordan farq	kg/kishi	-11,653	-10,472	-9,516	-5,232	-6,238	-5,935	5,7	50,9
6	Me‘yor bo‘yicha talab	ming tonna	20,2	20,8	21,8	22,8	23,7	24,0	3,9	119,1
7	Haqiqatda ishlab chiqarish ulushi	foiz	2,90	12,74	20,70	56,40	48,01	50,54	47,65	1745,8
8	Taqchillik	ming tonna	19,6	18,2	17,3	9,9	12,3	11,9	-7,7	60,7
9	1 ta chavoqning o‘rtacha vazni	kg	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0	100
10	1 ta baliqning o‘rtacha vazni	kg	2	2	2	2	2	2	0	100
11	Chavoqlarning voyaga yetish koeffitsiyenti		0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0	100
12	Ovlanadigan baliq soni	mln. dona	10,085	10,419	10,905	11,390	11,857	12,016	1,931	119,1
13	Zarur chavoq soni	mln. dona	11,206	11,577	12,117	12,655	13,175	13,351	2,145	119,1

